XALQ DEPUTATLARI POP TUMAN KENGASHI QARORI

160500, Pop shahri Obod MFY Istiqlol ko`chasi, 5 uy Tel: 69-43-32-718

2023 - yil 13 - sentabr VI-71-105-6-84-K/23 Pop tuman hokimligi

Pop tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2023 yil 29 mayda 91-6-84-F/23-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Namangan viloyati Pop tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tuman hududlarining umumiy perimetri **1 288 911 metr,** umumiy maydoni **288 144,16 gektar** ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

-Yangihayot qishlog‘ining umumiy perimetri 63 515 metr ekanligi, umumiy maydoni 4409,15 gektar;

-Uyg‘ur qishlog‘ining umumiy perimetri 78 495 metr ekanligi, umumiy maydoni 11553,65 gektar;

-Sirdaryo qishlog‘ining umumiy perimetri 54 596 metr ekanligi, umumiy maydoni 3395,19 gektar;

-Pungon qishlog‘ining umumiy perimetri 34 126 metr ekanligi, umumiy maydoni 2225,06 gektar;

-Pop qishlog‘ining umumiy perimetri 58 314 metr ekanligi, umumiy maydoni 3382,29 gektar;

-Paxtaobod qishlog‘ining umumiy perimetri 33 836 metr ekanligi, umumiy maydoni 2693,98 gektar;

-Nayman qishlog‘ining umumiy perimetri 180 616 metr ekanligi, umumiy maydoni 26996,56 gektar;

-Madaniyat qishlog‘ining umumiy perimetri 140 580 metr ekanligi, umumiy maydoni 30161,61 gektar;

-G‘urumsaroy qishlog‘ining umumiy perimetri 91 636 metr ekanligi, umumiy maydoni 10323,60 gektar;

-Chodak qishlog‘ining umumiy perimetri 352 249 metr ekanligi, umumiy maydoni 188542,70 gektar;

Pop shahrining umumiy perimetri 18 402 metr ekanligi, umumiy maydoni 548,58 gektar;

“Yangi Xo‘jaobod” shaharchasining umumiy perimetri 5 118 metr ekanligi, umumiy maydoni 130,86 gektar;

“Xalqobod” shaharchasining umumiy perimetri 9 984 metr ekanligi, umumiy maydoni 177,49 gektar;

“Uyg‘ursoy” shaharchasining umumiy perimetri 3 201 metr ekanligi, umumiy maydoni 48,63 gektar;

“Uyg‘ur” shaharchasining umumiy perimetri 17 030 metr ekanligi, umumiy maydoni 414,46 gektar;

“Sang” shaharchasining umumiy perimetri 14 540 metr ekanligi, umumiy maydoni 463,71 gektar;

“Qo‘rg‘onobod” shaharchasining umumiy perimetri 6 091 metr ekanligi, umumiy maydoni 115,68 gektar;

“Qandig‘on” shaharchasining umumiy perimetri 12 533 metr ekanligi, umumiy maydoni 311,73 gektar;

“Pungon” shaharchasining umumiy perimetri 11 187 metr ekanligi, umumiy maydoni 164,67 gektar;

“Oltinkon” shaharchasining umumiy perimetri 16 733 metr ekanligi, umumiy maydoni 186,17 gektar;

“Navbahor” shaharchasining umumiy perimetri 4 871 metr ekanligi, umumiy maydoni 115,43 gektar;

“Madaniyat” shaharchasining umumiy perimetri 12 312 metr ekanligi, umumiy maydoni 326,82 gektar;

“G‘urumsaroy” shaharchasining umumiy perimetri 21 641 metr ekanligi, umumiy maydoni 463,44 gektar;

“Chorkesar-2” shaharchasining umumiy perimetri 16 701 metr ekanligi, umumiy maydoni 279,21 gektar;

“Chorkesar” shaharchasining umumiy perimetri 14 748 metr ekanligi, umumiy maydoni 272,63 gektar;

“Chodak” shaharchasining umumiy perimetri 15 856 metr ekanligi, umumiy maydoni 440,86 gektar ekanligi aniqlandi.

Pop tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda Pop shahri, shaharcha va har bir qishloqlarning chegaralari ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Pop tumani filiali rahbari J.Esonalievning axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlar palatasining Pop tumani filiali rahbari J.Esonalievning Pop tumani hududidagi Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash

to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Pop tumanidagi shaharcha va qishloqlarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Pop shahar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan Ishchi guruh tarkibining 2023 yil “25” iyuldagi 5-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pop tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (F.Ermatov) ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Sultanov**

Xalq deputatlari Pop tuman
Kengashining
2023-yil 13-sentabrdagi
VI-71-105-6-84-K/23-son qaroriga
1-ilova

Pop tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Yangihayot qishlog‘i	63515	4409,15
2	Uyg‘ur qishlog‘i	78495	11553,65
3	Sirdaryo qishlog‘i	54596	3395,19
4	Pungon qishlog‘i	34126	2225,06
5	Pop qishlog‘i	58314	3382,29
6	Paxtaobod qishlog‘i	33836	2693,98
7	Nayman qishlog‘i	180616	26996,56
8	Madaniyat qishlog‘i	140580	30161,61
9	G‘urumsaroy qishlog‘i	91636	10323,60
10	Chodak qishlog‘i	352249	188542,70
11	Pop shahri	18402	548,58
12	Yangi Xo‘jaobod shaharchasi	5118	130,86
13	Xalqobod shaharchasi	9984	177,49
14	Uyg‘ursoy shaharchasi	3201	48,63
15	Uyg‘ur shaharchasi	17030	414,46
16	Sang shaharchasi	14540	463,71
17	Qo‘rg‘onobod shaharchasi	6091	115,68
18	Qandig‘on shaharchasi	12533	311,73
19	Pungon shaharchasi	11187	164,67
20	Oltinkon shaharchasi	16733	186,17
21	Navbahor shaharchasi	4871	115,43
22	Madaniyat shaharchasi	12312	326,82
23	G‘urumsaroy shaharchasi	21641	463,44
24	Chorkesar-2 shaharchasi	16701	279,21
25	Chorkesar shaharchasi	14748	272,63
26	Chodak shaharchasi	15856	440,86
	Jami	**1 288 911**	**288 144,16**

Xalq deputatlari Pop tuman
Kengashining
2023-yil 13-sentabrdagi
VI-71-105-6-84-K/23-son qaroriga
2-ilova

Pop tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi

Namangan viloyati Pop tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarining chegaralarini belgilash bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha ***Qirg'iziston Respublikasi yerlari***

B dan D gacha ***Chust tumani yerlari***

D dan E gacha ***Mingbuloq tumani yerlari***

E dan F gacha ***Farg'ona viloyati yerlari***

F dan G gacha ***Tojikiston Respublikasi yerlari***

G dan A gacha ***Toshkent viloyati yerlari***

Shartli belgilar

Davlatlar chegarasi

Viloyatlar chegarasi

Tumanlar chegarasi

Shahar va shaharchalar chegarasi

Qishloqlar chegarasi